

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi javobdagi fikr to'g'ri emas?
A) Maqsad ravishdoshini hosil qiluvchi qo'shimcha fe'l asosidagi tovush ta'sirida tovush o'zgarishiga uchrashi mumkin.
B) Ayrim fe'llarga o'tgan zamon sifatdosh shakli qo'shilganda fe'l asosi imlosida. tovush o'zgarishi kuzatilishi mumkin.
C) Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi qo'shimcha asos ta'sirida tovush o'zgarishiga uchrashi mumkin.
D) Ayrim kelishik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida imloda tovush tushishi kuzatilishi mumkin.
2. Qaysi gaplarda tovush o'zgarishi asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashgan?
1) Mehnat bilan inoqlashsang, tan og'rig'in sezmayсан. 2) U vijdon qiynoqlariga dosh bera olmadi. 3) Chaqaloq oppoq, momiq qo'llarini menga cho'zib talpinardi. 4) Dangasa va yalqovlarni hech qachon o'zingga do'st sanama.
A) 1, 2, 3, 4 B) 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2
3. Qaysi gapdagi ega vazifasida kelgan so'z tarkibida burun undoshi qatnashgan?
A) Maydonchada bola arqonlarga osilib o'ynamoqda.
B) Menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi.
C) Ijodkor turmushni har tomonlama o'rganadi.
D) Bu ovoz menda yana umid uchqunlarini paydo qildi.
4. Oltin makre balig'i dengiz tubida yashaydi, jussasi xiylagina katta, lekin uning xosiyati go'zalligida: suzgichlaridan tortib kemirchak tarog'igacha oltin singari tovlanib turadi, shuning uchun uni oltin makre deb atashadi. Berilgan gap imlosida so'z yasovchi qo'shimchalar ta'sirida necha o'rinda tovush almashishi yuz bergan?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
5. Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan xurmatsizlik eshigini yopadi va odamni xazil-mazaxdan, kamsitilishdan saqlaydi. Ushbu gapda necha o'rinda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?
A) 4 o'rinda B) 2 o'rinda
C) 5 o'rinda D) 3 o'rinda
6. Donishmandlarning takidlashicha, insonda xamma narsa: chexra ham, odob ham, xulq-atvor ham go'zal bo'lmog'i lozim. Ushbu gapda necha o'rinda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?
A) 3 o'rinda B) 4 o'rinda

- C) 5 o'rinda D) 2 o'rinda
7. Quyida berilganlardan imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan yasama so'zlarni aniqlang.
1) sulx; 2) extiyotkor; 3) exon; 4) ishtahasiz; 5) muxrdor
A) 2, 5 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4
8. Qaysi so'z imlosida xatolik kuzatilmaydi?
A) aparat B) bir oz
C) hayfsan D) yildan-yilga
9. Qaysi javobdagi barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?
A) islohot, xalaskor, tamon
B) talofat, chopog'on, faollik
C) matbuot, hashorot, nomoyon
D) inshoot, sazovor, kamolot
10. Qaysi gapda hol vazifasini bajargan so'z imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan?
A) Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda.
B) Qadimdan davom etib kelayotgan surinkali ofatlardan biri bu komil inson qadr-qimmatini vaqtida baholay olmaslikdir.
C) Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog'dagi qor zaxirasidan xursand — bu yil obihayot mo'l bo'lishidan umidvor.
D) Mashhur ayg'irning chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurusdan Komilaga yuzlandi.
11. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.
A) xavf, mudofa B) tasavvur, muloqat
C) inshoot, mumkun D) lavz, tadbiiq
12. Qaysi gapda aniqlovchi vazifasidagi so'z imlosida xatolik kuzatiladi?
A) San'atkor tamoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.
B) Bu dasxat juda chiroyli ekan, ko'zingni quvont.iradi.
C) Sigir sog'gan qiz nonushtaga hammadan keyin keldi.
D) Navbatdagi muolija dushanbadan boshlanadi.
13. Qaysi javobda ergash gap qismida imloviy jihatdan xato yozilgan ega qatnashgan ergashgan qo'shma gap berilgan?
A) Odob shunday tojki, aqlli va forosatlilar boshini bezaydi.
B) Shuni bilingki, asossiz ravishda qilingan tazyiq kishining nafsoniyatiga tegadi.
C) Shunisi achinarliki, uni ruhiy tushkinlik o'z asiriga aylantirgan edi.
D) Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning muloxazalari ham chuqur bo'ladi.

14. Qaysi javobda sifat turkumiga oid o'zaro ma'nodosh so'zlar qatori berilgan?

- A) armug'on, tuhfa, tortiq
- B) suluv, go'zal, ko'rk
- C) taniq, mard, saxiy
- D) barvasta, norg'ul. Barzangi

15. Qaysi javobda ot turkumiga oid o'zaro ma'nodosh so'zlar qatori berilgan?

- A) armug'on, tuhfa, tortiq
- B) barvasta, norg'ul, barzangi
- C) chiroy, ko'rk, suluv
- D) tantiqlik. mardlik. Saxiylik

16. Qaysi javobda paronimi mavjud bo'lgan ot berilgan?

- A) xam B) podshoh C) shoh D) adil

17. Qaysi javobda o'z paronimi bilan turli xil so'z turkumiga oid txvla oladigan so'z berilgan?

- A) sher B) amr C) azm D) yaroqli

18. Lekin Mahmud - Qutlug' Nigor xonim... akasi, ji.yani Bobur... ashaddiy dushmani Ahmad Tanbal... yon bosishi mumkin emasday tuyilardi.

Nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchalari qo'yilishi kerak?

- A) 2 o'rinda tushum, 1 o'rinda o'rin-payt
- B) 1 o'rinda qaratqich, 1 o'rinda tushum, 1 o'rinda jo'nalish
- C) 2 o'rinda qaratqich, 1 o'rinda jo'nalish
- D) 2 o'rinda tushum, 1 o'rinda qaratqich

19. Qaysi gapdagi sodda yasama so'zlar o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub so'zlardan yasalgan?

- A) Bu guruhda aqlli, odobli bolalar ko'p edi.
- B) Ilmga tashnalik, til bilish, bilimga islitioyq meni xursand qiladi.
- C) Gapirganda ovozi xuddi xumning ichidan chiqqanday guldurab eshitaladi.
- D) Mustaqillik yillarida yurtimizda chiroyli binolar qurildi.

20. Qaysi gapda qatnashgan yasama otlarning barchasi o'zaro bir xil turkumga oid so'zlardan yasalgan?

- A) Direktor o'tkazilgan ko'rikda ko'rgazmaning oliy yutug'ini qo'lga kiritgan emish.
- B) Bir ayol unga mehribonlik bilan tikilib turar, qilgan yaxshiligi uchun minnatdorchiilik bildirishga, tilaklarini aytishga chog'lanar edi.
- C) Oqqirov kasalligini yuzaga keltiruvchi organizmlar go'za barglarida in quradi, chirindilar orasida qishlaydi.
- D) Akam traktor terimidan so'ng hovlining kamchiliklarini tuzatishga kirishdilar.

21. Hammamiz ham shu yurtning farzandimiz, uning ravnaqi uchun bor kuchimizni sarflashga tayyormiz.

Mazkur gapdagi munosabat shakllari qo'shimchalari sonini ko'rsating.

- A) 11 ta B) 9 ta C) 8 ta D) 10 ta

22. Qaysi javobda o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub tub so'zlar qatori berilgan?

- A) toliqmoq, oqarmoq, o'zgarmaq
- B) toychoq, qo'zichoq, bo'taloq
- C) changitish, oqarinqiramoq, qayg'urmoq
- D) qahqaha, kelinchak, pirpirak

23. Qaysi gapdagi sifatning barchasi o'zaro bir ma'noviy guruhga mansub?

- A) Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta, tabiatan kamgap odam.
- B) Eng katta o'g'il qizil yoqut ko'zli oltin uzugini ko'rsatib maqtanibdi.
- C) Hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi.
- D) Yalqov kishi - qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; g'ayratsiz, qo'rqqoq kishi - maqtanchoq bo'ladi.

24. Qaysi gapda qatnashgan shaxs otlari o'zaro bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan?

- A) Solihboy ertasi kuni qassobning mashinasida o'sha zargar bilan shaharga ketdi.
- B) Otasining bu gapidan keyin u o'z qilg'idan uyalib ketdi-yu, qassobning uyiga kechirim so'ragani bordi.
- C) Aravakash mo'mingina, muloyim, kamsuxan yigit ekan.
- D) Bizning baqqollik do'konimizda ishlaydigan yigitning ikkita ukasi bor ekan, shularni boqish, yedirib-ichirish uning zimmasida edi.

25. Qiz atrofga qarab birdan o'z uyining tomini ko'ribdi.

Gapdagi so'zlar necha xil mustaqil so'z turkumiga oid?

- A) 4 xil B) 3 xil C) 6 xil D) 5 xil

26. Qaysi gapda olmoshning ma'nosiga ko'ra uch turi qatnashgan?

- A) Bu masalada sizga har doim yordam berolmaymiz.
- B) Bu tadbirda biz ham qatnashmoqchi edik.
- C) Qilgan xatolaringga, albatta, sen o'zing javob berishing kerak.
- D) Sen bu vazifani hech qachon uddalay olmaysan.

27. Ravishning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Ertalab chiqib ketaman. kechqurun uyga qaytaman.
- B) Men ham bunga a rang ko'nikdim, sen esa hali ko'nikmayapsan.
- C) Vodiylarni yayov kevganda, bir ajib his bor edi menda.
- D) Ular qishloqdan ancha uzoqlashgandan keyin

otlariga minib yo'rtib ketdilar.

28. Qaysi javobda hisob so'z qatnashmagan gaplar to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Qizcha qo'lida ko'tarib ketayotgan uchta piyolani sindirib qo'ydi. 2. Bemor zo'rg'a ikki qoshiqqina ovqat yedi. 3. Qishloqqacha hali qariyb bir kilometr yo'l yurish kerak edi. 4. Xafisa ikki etak paxta terdi. 5. Onaxon nabiralari ikkitadan ko'ylak sotib oldi.

- A) 1, 5 B) 3, 4, 5
C) 2, 3 D) 1, 2, 4, 5

29. Ravishning ma'nosiga ko'ra uch turi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Men avvallari shu yo'ldan o'tayotganimda tabiatni tomosha qilish uchun ataylab sekin yurar edim.
B) Ko'p yaxshi oylabsiz, saltanatning gullab-yashnashi uchun ancha ishlar qilishimiz kerak.
C) Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi.
D) Ertalab tursa ko'cha eshik lang ochiq, yong'oqqa bog'liqlik sigir yo'q.

30. Qaysi gapdagi barcha fe'llar yasama hisoblanadi?

A) Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qo'llari qaltiraydigan, qarib qolgan otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.
B) O'g'li va kelinining bu kabi muomalalaridan ranjigan ota vafot, etgan kampirini eslab, ba'zan yig'lardi.
C) Kimyogar ba'zi ilmlar haqida suhbatlashgandan keyin uning zehni o'tkirligiga taajjublanganini yashirmadi.
D) Otasining bu gapidan keyin u o'z qiligidan uyali ketdi-yu, qassobning uyiga kechirim so'ragani bordi.

31. Qaysi javobda qo'shma va sodda yasama fe'llar ishtirok etgan?

A) Komila bir chekkada g'uj-g'uj ochilgan atirgulni hidlab, Mastura bilan gaplashayotgandi.
B) Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt, Seni guldek erkalagan chaman uchun.
C) Hakim bobo har bir niholga alohida e'tibor berib parvarish qilardi.
D) Alpomishga alia aytgan momolarim Ruhini shod etay desang, xalq bo'l, elim!

32. Qaysi javobda orttirma nisbatdagi fe'l ishtirok etmagan?

A) Topilar, tosh otib. to'lqin chiqarib, Tomosha qilishga havasmand jonlar.
B) Ikki o'g'il yana chol Qoshiga qaytishibdi Va bor gapni oqizmay. Tomizmay aytishibdi.
C) Cho'lpon birdan Cho'lponligin tuyib chopgandir — Sochdan to tirnog'i kuyib chopgandir...

D) Pastlik qilma, Alpomishning avlodisan, Muhtojlarning g'amlarini arit. bolam.

33. Qaysi gapda majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan?

A) Qoqilgan odam yerda. yotgan toshdan o'pkalamaydi.
B) Bu mavzu oldin ham ishlangan, lekin ommaga e'lon qilinmagani uchun jamoatchilik bexabar qolgan.
C) Ziyofatga taklif etilgan mehmonlar kelishdi.
D) "Egilgan boshni qilich kesmas", — deydi dono xalqimiz.

34. Ular shag'al to'kilgan katta yo'lni kesib o'tib adirga tomon chiqib ketayotganda botayotgan quyoshning horg'in nun ro'paradagi qorli tog' cho'qqisini, uning tepa.si.da uvadaday osilib turgan bulutni bir lahza qizartirdi-da, so'ndi. Ushbu gapdagi fe'l nisbati qo'shimchalari sonini aniqlang.

- A) 2 ta B) 4 ta
C) 1 ta D) 3 ta

35. Mehnatingni ayamasang, rejadagi topshiriqlarni o'z vaqtida bajarasan.

Ushbu gapdagi fe'llar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) Ushbu gapdagi fe'llarda har xil shaxs-son ma'nosi ifodalangan.
B) Ushbu gapdagi fe'llar har xil nisbatda.
C) Ushbu gapdagi fe'llar vazifa shakliga ko'ra o'zaro bir turga oiddir.
D) Ushbu gapdagi fe'llarda o'zaro bir xil mayl ma'nosi ifodalangan.

36. Turli hajmda kattalashtirib ko'rsatadigan ikki tomoni qabariq oynaga mikroskop deyiladi, bu jihozdan olimlar unumli foydalangan va fanda juda ko'p yutuqlarga erishgan.

Ushbu gapda qatnashgan fe'l nisbatlari haqidagi to'g'ri fikrni toping.

A) Ushbu gapda hoi vazifasini bajargan fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi qatnashmagan.
B) Ushbu gapda orttirma nisbat qo'shimchasi ta sirida o'timsiz fe'lning o'timli fe'lga aylanishi kuzatiladi.

C) Ushbu gapdagi barcha kesimlar tarkibida fe'l nisbati qo'shimchasi qatnashgan.

D) Ushbu gapda aniq nisbatdagi fe'l aniqlovchi vazifasini bajargan.

37. Turli hajmda kattalashtirib ko'rsatadigan ikki tomoni qabariq oynaga mikroskop deyiladi, bu jihozdan olimlar unumli foydalangan.

Ushbu gapda qatnashgan fe'l nisbatlari haqidagi to'g'ri fikrni toping.

A) Ushbu gapdagi kesimlar tarkibida fe'l nisbati qo'shimchasi qatnashmagan.

B) Ushbu gapda nisbat qo'shimchasi ta'sirida fe'lining o'timli-o'timsizlik ma'nosi o'zgarishi kuzatilmaydi.

C) Ushbu gapda orttirma nisbatdagi fe'ning hoi vazifasini bajarishi kuzatilgan.

D) Ushbu gapda aniq nisbatdagi fe'l aniqlovchi vazifasini bajargan.

38. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar.

Ushbu gapdagi qo'shimchalar haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) ismning munosabat shakli 2 o'rinda qatnashgan;

2) fe'l nisbati shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha 1 o'rinda qatnashgan; 3) 1 o'rinda tushum kelishigi belgisiz qo'llangan; 4) fe'ning munosabat shakli 1 o'rinda qatnashgan

A) 1, 2 B) 1, 4 C) 3, 4 D) 2, 3

39. Quyida berilgan fe'llardan nechtasining asosida

ifodalangan o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan? kuylatmoq, o'ylanmoq, qiynalmoq, yedirmoq, silkinmoq, jimirlatmoq, bo'shatmoq

A) 5 ta B) 7 ta C) 4 ta D) 6 ta

40. Bog'ga gul ekdi.

Mazkur gapning kesimi majhul nisbatdagi fe'lga aylantirilganda quyidagi qaysi holatlar kuzatilmaydi?

1) zamon ma'nosi o'zgaradi; 2) to'ldiruvchi egaga aylanadi; 3) o'timli fe'l o'timsiz fe'lga aylanadi; 4) fe'lda ifodalangan mayl ma'nosi o'zgaradi.

A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3

41. Turli hajmda kattalashtirib ko'rsatadigan ikki tomoni qabariq oyna, ya'ni mikroskopdan unumli foydalangan olimlar fanda juda ko'p yutuqlarga erishgan.

Ushbu gapda qatnashgan fe'l nisbatlari haqidagi noto'g'ri fikrni toping.

A) Ushbu gapda nisbat qo'shimchasi ta'sirida fe'lining o'timli-o'timsizlik ma'nosi o'zgarishi kuzatiladi.

B) Ushbu gapda orttirma nisbatdagi fe'ning aniqlovchi vazifasini bajarishi kuzatiladi.

C) Ushbu gapda orttirma nisbatdagi fe'ning hoi vazifasini bajarishi kuzatiladi.

D) Ushbu gapda qo'llangan nisbat qo'shimchalarining barchasi o'timli fe'llarga qo'shilgan.

42. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganingni bilishni istasang, atrofingdagi onalarga boq, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga qara, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan ...

Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi ma'lumotlar to'g'ri emas?

1) barcha kesimlar sof fe'l bilan ifodalangan; 2) kesimlar shart. buyruq-istak, xabar mayli fe'llari bilan ifodalangan; 3) barcha kesimlar mustaqil kesimlarga mansub; 4) kesimlar har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'llar bilan ifodalangan.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 3, 4

43. Shovulladi tun bo'yi shamol,

Qaldiroqlar ko'chdi larzakor.

Shivirlading yonimda xushhol:

“Yana keldi, do'stinam, bahor”.

She'riy parchada ishtirok etgan fe'llar haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.

A) Ushbu fe'llarning barchasi III shaxsdagi fe'llar hisoblanadi.

B) Ushbu fe'llarning barchasi o'timli fe'llar hisoblanadi.

C) Ushbu fe'llarning barchasi o'zaro bir xil nisbatdagi fe'llar hisoblanadi.

D) Ushbu fe'llarning barchasi tub fe'llar hisoblanadi.

44. Quyidagi qaysi gapda vazifasiga ko'ra ikki turga oid bog'lovchilar qatnashgan?

A) U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taor insonniki emas. qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan edi.

B) Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmaydi, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oddiy martabasini ham o'z ichiga oladi.

C) Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik harnda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi.

D) O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmas edi.

45. Qaysi gapda yordamchi so'zlarning har bir turkumiga oid birliklar ishtirok etgan?

A) Bu she'r menga bag'ishlangani uchun emas, balki unda buyuk shoirning qalbi mavj urib turgani uchun sevaman.

B) Boyvachcha yer o'pib, tavba qilibdi va keksa otanasini rozi qilish uchun o'sha zahoti uyi tomon shoshilibdi.

C) “Sen ham men kabi rohatda yashasang bo'lmaydimi, chunki mening hayotimda mashaqqat yo'q”. — debdi pashsha.

D) Navoiy, Bobur va Mashrab singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlab turadi.

46. Qaysi gapda sof ko'makchi sabab holini shakllantirgan ?

- A) Betob bo'lib qolgani uchun Nasimjon bugun darsga kela olmadi.
- B) Bu yerga Madali akaning jig'iga tegish, rashkini keltirish uchun kirganligimni eslab, mulzam bo'ldim.
- C) Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
- D) Dunyoda to'g'ri yashab, yurtga xizmat qilib o'tishdan ortiq baxt bormi inson bolasi uchun?!

47. Qaysi gaplarda sof ko'makchi maqsad holini shakllantirgan?

- A) Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?
- B) Dunyoda. to'g'ri yashab, yurtga xizmat qilib o'tishdan ortiq baxt bormi inson bolasi uchun?!
- C) Betob bo'lib qolgani uchun Nasimjon bugun darsga kela olmadi.
- D) Bu yerga Madali akaning jig'iga. tegish, rashkini keltirish uchun kirganligimni eslab, mulzam bo'ldim.

48. Dutor torlarining jarangi Zumradning tovushiga qo'shilib ketdi.

Gapdagi aniqlovchili birikmalar sonini toping.

- A) 4 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 3 ta

49. Saxiylik kishilarning ishonch va muhabbatidan paydo bo'ladi.

Ushbu gap tarkibidagi so'z birikmalari sonini aniqlang.

- A) 5 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 6 ta

50. Moslashuv munosabatli so'z birikmalari ishtirok etgan javobni aniqlang.

- A) Buncha bino qo'yima zarrin choponlarga, Saratonda yaproq bo'lgan dehqonlarga.
- B) Qutlug' davralarda jam bo'lgan mahal Do'stlarga baxt tilash - azaliy odat.
- C) Baxtlidir, o'z davrin zavolin ko'rmay Yo'qlikka ravona bo'lgan inson.
- D) Och qolgan go'dakka saxovatli zot Yarimta xurmoni dildan Hindi.

51. Qaysi javobda to'ldiruvchili so'z birikmasi ishtirok etmagan?

- A) Adolatning hayotbaxsh shamollari yeldimi, Haq, nihoyat, xalqimning arzin qabul qildimi...
- B) Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq, Rostdan ona erur qiblai olam.
- C) Odam bolalari turfa naqadar, Biri mo'min bo'lsa, boshqasi asov.
- D) Yurt uni senga she'r bitdim bu кип, Qiyosingni topmadim aslo

52. Qaysi gapda tobe qismi tub ot bilan, hokim qismi krmakchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan ifodalangan so'z birikmasi qatnashgan?

- A) O'zini o'zbek xalqining farzandi deb hisoblagan

har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan faxrlanib yursin.

- B) Ikromjon qishloqqa ketgach tushlik payti ham o'g'liga ovqat olib boradi.
- C) Jannat xola sandal ustiga osilgan suratni qo'liga olib Nizomjonga ko'rsatar, o'g'lining bolalikdagi sho'xliklarini kulib, yig'lab gapirar edi.
- D) Reklama uchun ajratilgan mabhigrii qisqartirib qo'yib tanazzulga uchradi.

53. Ham qaratqich aniqlovchini, ham sifatlovchi aniqlovchini tobelantirgan ega ishtirok etgan javobni aniqlang.

- A) Bugun Dildora oq shohi ko'ylagini kiyib keldi.
- B) To'ybekaning tanlovdagi yutug'i hammani xushnud etdi.
- C) Shoirning dilrabo baytlari misol Oh tortib tizilar turnalar gohi.
- D) Yelkamizga oftobning tegganligi rost bo'lsin.

54. U o'z fikrlarini va falsajiy-badiiy mushohadalarini ta'sirchan ifoda etgan edi. Ushbu gapda nechta so'z birikmasi mavjud?

- A) 7 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 4 ta

55. Qaysi gapda hokim qismlari aniqlovchi va kesim vazifasida kelgan to'ldiruvchili birikmalar qatnashgan?

- A) Mashhur hofizning g'ijjagida kuy chalishni hamisha orzu qilardi.
- B) Ushbu nolaning yig'layotgan odam ovozigga o'xshab ketishiga e'tibor berganmisiz?
- C) Bu sozda hayotbaxsh ohang yarata olish har kimga ham nasib qilmasa kerak.
- D) Hofizning qudratli ovozigga jo'r bo'layotgan g'ijjak nolasiga quloq tutaman.

56. Ham qaratqich aniqlovchini. ham sifatlovchi aniqlovchini tobelantirgan ega ishtirok etgan javobni aniqlang.

- A) Yelkamizga oftobning tegganligi rost bo'lsin...
- B) Dildoraning shohi ko'ylagini hamrna yoqtirdi.
- C) Kunduzning g'aroyib chog'idir oqshom, Saodat birla u nurafshon bo'lsin.
- D) Ularning turfa xil odatlari bor, Avval ganjarini ko'mgay tuproqqa.

57. Qaysi gapda ega vazifasini bajargan sifatlanmish qatnashgan?

- A) Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar.
- B) Insonni sog'lom qiladigan jismoniy mashqlardir, uning ma'naviyatini boyitadigan esa badiiy adabiyotdir.
- C) Yaxshi so'zga uchar qushlar el bo'lar. ..
- D) Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.

58. Vatanga muhabbat, xalq va millat birligi, yurt istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib, yonib kuylaydilar.

Berilgan gapda qaysi bo'laklar uyushgan?

1) kesim; 2) ega; 3) to'ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol

A) 1, 2, 3 B) 3, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 4, 5

59. Qaysi javobda turli so'z turkumlari bilan ifodalangan uyushiq hollar ishtirok etgan gap berilgan?

A) U ko'chadan kiyimlari yirtilib, titilib kirdi.
B) U hayajon bilan, tez-tez, bo'g'ilib so'zlar edi.
C) Hovlida, gulzorda yosh-yosh qizchalar davra qurib o'ynashmoqda.
D) Ufqqa tutashib ketgan polizlar, tokzorlarda qizg'ish nurlar taralardi.

60. Qaysi gapda vositasiz to'ldiruvchiga tobelanib kelgan vositali to'ldiruvchi qatnashgan?

A) Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.
B) Hofiz Koykiy esa lablarini mahkam qimtigancha, ko'proq o'z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz tasalli beradi.
C) U juda saxiy, dilkash inson bo'lib, odamlarga yaxshilik qilishni yoqtirar, barchaga birdek munosabatda bo'lar edi.
D) Ey inson, odam degani qo'yini qassobga bersa ham, so'yguncha poylab turadi.

61. Dugonam sevinganidan terisiga sig'may ketdi. Ushbu gapda ishtirok etgan bo'laklarni aniqlang.

A) ega, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, hol, kesim
B) ega, hol, kesim
C) ega, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, kesim
D) ega, hol, to'ldiruvchi, kesim

62. Uyushiq to'ldiruvchi holga tobelangan gapni toping.

A) Xastani, keksalarni korish, hol-ahvol so'rash uyiga non tugib borishdan boshlangan.
B) Yigit qo'lidagi quti va xaltani ayvonga qoydi va kelganlarga peshvoz chiqdi.
C) Bolalar kitob, jurnal, gazeta o'qigani tez-tez keladigan bo'ldilar.
D) Choyxonachi bir zumda. patnida non bilan qand-qurs keltirdi.

63. Vositali to'ldiruvchi hamda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan gapni toping.

A) Ular millatga va xalqqa muhabbatni. yurtning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuyladilar.
B) Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli hurmat topgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi.
C) Kun sayin Vatanimizning obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham inshootlar barpo

etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga iftixor baxsh etmoqda.

D) Yurtni himoya qila oladigan mard o'g'lonlarga, buyuk kelajakni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodlarga olqishlar bo'lsin.

64. Qaysi gapda ibora bilan ifodalangan aniqlovchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan?

A) Tashvishlanmang, endi pixini yorgan qallob ham uni alday olmaydi.

B) To'ydan keyin ko'p o'tmay u kelinini har narsaga koyiyveradigan, tirnoq ostidan kir qidiraveradigan odat chiqardi.

C) Yulduzni benarvon uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak.

D) Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r.

65. Qaysi gapda olmosh o'zi ishora qilgan so'z bilan o'zaro bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan?

A) Shoir zukko va zakiy inson edi. shu sababli, hatto uning shaxsiy tuyg'ularida ham keng kitobxonlar uchun ahamiyatli nurli qirralar mavjud edi.

B) Hamid Olimjon she'riyatda kamolot cho'qqisiga erishdi, u so'zni tanbur torlaridek turli pardalarda cherta oldi.

C) Ulug' odam yolg'iz qolmaydi, taqdir uni do'stlaridan ayira olmaydi.

D) — Akasi ishdan qaytsin, yotig'i bilan tushuntiraman, — dedi Hamroqulga, — siz kutib turing.

66. Teran va atroflicha fikrlaydigan, ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetadigan siymolarnigina mutajakkir deyish mumkin. Mazkur gapda uyushiq bo'laklar qaysi gap bo'laklariga tobelangan?

A) holga, to'ldiruvchiga
B) to'ldiruvchiga. Egaga
C) holga, to'ldiruvchiga, kesimga
D) aniqlovchiga, to'ldiruvchiga

67. Qaysi gapdagi yuklama-bog'lovchini zidlov bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin?

A) Jamoa xo'jaligi bamisoli bir xonadon-u, Jo'raxon uning onaxoni bo'ldi-qo'ydi.
B) Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zarninga ochdi.

C) Yer yuzini sug'orib turgan bahor bulutlari orasidan go'yo quyosh chiqdi-yu, ko'nglimizda shodlik chechaklari ochildi.

D) Bashorat bilan Tursunboy yugurib keldilar-u, Kamolxon Azizovich hali uyda yo'q edi.

68. Qaysi javobda bosh va ergash gapni bog'lovchi vosita sifatida qo'llangan, biri ikkinchisini taqozo etgan nisbiy so'zlar o'zaro bir xil bo'lak vazifasida kelgan?

A) Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi.

- B) Kimning ishi to'g'ri bo'lsa, u doim bexavotir bo'ladi.
- C) Siz kimni tavsiya qilsangiz, men uning nomzodini qo'llab-quvvatlashga tayyorman.
- D) Sen nimani istasang, o'shani muhayyo qilaman.
69. Bosh gap qismi egasi yashiringan gap bo'lgan ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- A) Sen shuni tan olginki, tirishqoqliging tufayli ko'p narsaga erishding.
- B) Axir, men sizga aytdim-ku, uch kundan beri men uni ko'rmayapman.
- C) Shuni takror aytamanki, inson qalbi bilan hazillashmang siz.
- D) Ishni o'z vaqtida bajarish kerak, chunki bu ishda sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.
70. Bosh gapni tarkibida uyushiq bo'laklar qatnashgan ergash gapli qo'shma gapni belgilang.
- A) Xalqimiz olamga juda ko'plab buyuk zotlami yetishtirgan, shunday ekan, biz — yoshlar, ularga munosib voris bo'lmog'imiz lozim.
- B) Yuqori qavatlariga faqat shu zinadan yurib chiqiladi, chunki bino va uning atrofidagi ta'mirlash ishlari olib borilyapti.
- C) Yoz bo'yi g'ayrat va shijoat bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli jamoamiz mo'l hosil oldi.
- D) Beruniy ilm yo'lidagi hamkorlikni juda qadrlar edi, shuning uchun ham u o'z davrining taniqli hamda iste'dodli olimlari bilan ilmiy aloqalar o'rnatgan edi.
71. Ham ergash gap qismi tarkibida, ham bosh gap qismi tarkibida bitishuv munosabatli so'z birikmasi ishtirok etgan ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- A) Yaxshi do'st qiynalganingda astoydil yordam beradi. biroq qo'rqqoq do'st yaxshi kuningda ham diishmandan xavfli bo'ladi.
- B) Odam umrining lazzati — farzand, lekin noqobil farzand ota-onaning umrini qisqartiradi.
- C) Men o'z fikrimni batafsil tashnntirib berishga harakat qildim, chunki ular mening g'oyamni ma'qullayotgan edilar.
- D) Uning bunday odati yo'q edi. shuning uchun biz bu gapga ishonmaymiz.
72. Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) Shoh Mashrab qoni senda Urdu tug'yon, o'zbeqim.
- B) Tongda ruhsiz ko'z ochaman, Qovurilar tanda jon.
- C) Tuzsiz sherlarim deb shirindan shirin Bolalarim yurar oyoq uchida...
- D) Tinch kuningni ko'rolmagan yurtfurushlar Bir kun bir kaft, tuprog'ingga zor bo'ladi.
73. Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik

- mavjud emas?
- A) Olti oykim, sher yozmayman, yuragim zada, Olti oykim. o'zgalarga tilayman omad...
- B) Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam.
- Labing yaprog'idin tomganki, go'yo qatra bol bo'lsam.
- C) Azm daryolar ham kamar bo'lolmas, Qo'shilib chulg'ansa selling belingga.
- D) Qiz hali yosh bo'lsa-da, bo'ychan edi, bichimi ingichka va sambitgul novdasidek adl edi.
74. Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) Tinch kuningni ko'rolmagan yurtfurushlar Bir kun bir kaft tuprog'ingga zor bo'ladi.
- B) Azim daryolar ham kamar bo'lolmas, Qo'shilib chulg'ansa selling belingga.
- C) Besh asrkim, nazmiy saroyini Titratadi zanjirband bir sher.
- D) Shoxlarda mezonlar yaltirar xira, Poyida shivirlar mening kuylarim.
75. Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) Ko'zlarni debdilar: "Ruhning ko'zgusi". Ularda namoyon qalblar sezgisi.
- B) Tinch kuningni ko'rolmagan yurtfurushlar Bir kun bir kaft tuprog'ingga zor bo'ladi.
- C) Nihoyat tabib bu og'ir dardning da'vosini topdi.
- D) Sheroziy kuylagan oy yuz, qora xol, Qamarni dog' etgan o'zingsan, ayol!
76. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) Bobom har doim: "Odam qo'li — gul", — deb ta'kidlar edilar.
- B) "Voqealar, — dedi Mirzo Ulug'bek, — sanio gumbazining harakatiga qarab emas, odamlarning intilishi bilan ro'y beradi".
- C) "O'g'lim bu chorakda baholaring qalay?" — so'radi dadam uyga kelganimda.
- D) "Ta'lim olmoqdan hech vaqt yuz o'g'irmangiz!" — dedi Navoiy Kamoliddin Behzodga qarab.
77. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) Bobom har doim: "Odam qo'li — gul", — deb ta'kidlar edilar.
- B) Mahmud Koshg'ariy shunday yozgan: "Belgi bo'lsa. odam yo'ldan adashmaydi".
- C) "Ta'lim olmoqdan hech vaqt yuz o'g'irmangiz!" - dedi Navoiy Kamoliddin Behzodga qarab.
- D) "Voqealar, — dedi Mirzo Ulug'bek, samo gumbazining harakatiga qarab emas, odamlarning intilishi bilan ro'y beradi".
78. Qaysi javobda tirening tushirib qoldirilishi bilan

bog'liq xatolik kuzatilmaydi?

- A) Har narsaga qiziqish biz uchun eski odat.
- B) Mening akam ham shifokor.
- C) Yaxshi qiz uy obro'si.
- D) Hosilning otasi suv, onasi yer.

79. Arpa ekan dehqon arpa olar,
Bug'doy ekan dehqon — bug'doy.

Ushbu qo'shma gapdagi tirening qo'llanish sababi to'g'ri izohlangan javobni belgilang.

- A) Qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi sodda gapning kesimi tushirib qoldirilganligi sababli tire qo'yilgan.
- B) Ajratilgan izohlovchi qatnashgani sababli tire qo'yilgan.
- C) Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida qiyoslash munosabati ifodalanganligi sababli tire qo'yilgan.
- D) Kesim ot kesim bo'lib, bog'lamasiz qo'llanganligi sababli tire qoyilgan.

80. Qaysi gapda ega va kesim orasida tinish belgisi qo'lanishi qoidasiga rioya qilingan?

- A) Yashashning asl mazmuni yaratish.
- B) Bu yigit ham — mehnatsevar emas, dangasa ekan.
- C) Guruhimiz — musobaqada birinchi edi.
- D) Bu — achchiq haqiqat.

81. O'zgalardan sizni yaxshi bilaman,
Xizmatingga bir qop tilla beraman.

Vayron qilgin ... mamlakatini,
Nima desang, xizmatkoring bo'laman.
"Rustamxon" dostonida bu so'zlar kimga qarata aytilgan va nuqtalar o'rniga qo'yiladigan so'zni toping.

- A) Rustamxonga, Bujul
- B) Momogul mastonga, Oqtosh
- C) Huroyimga, Hukumu
- D) Sultonxonga, Qurudim

82. Xalq dostonlari qahramonlaridan qaysi biri ovloq bir cho'lda ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga (devoriga) boylovli turgan "ajib suratli", "jamoli kunni xira qilguday" bir qizni ko'rib hayron qoladi va "Kel-e, o'ylab turguncha so'ylab bilayin", deya uni savolga tuta boshlaydi?

- A) Ravshan B) Sultonxon
- C) Rustamxon D) Hasanxon

83. Shohimardon pir qaysi doston qahramonlariga "tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli" qalandar qiyofasida kelib ism qo'Sadi?

- A) "Knntug'mish" B) "Alpomish"
- C) Rustamxon D) "Ravshan"

84. U o'z so'zida turadigan. barcha hunarlarga mohir qiz. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi. U o'z suratini chizdirib ... ning yurtiga yuborar ekan, "agar shu ko'rgan tushim rahmoniy

bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok boisa, Xudoyo xudovando, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqasiga tegmasin", deb niyat qiladi. Ushbu parchada xalq dostonlaridagi qaysi qahra.mon haqida fikr yuritilgan?

- A) Barchinoy B) Oftobxon C) Zulxumor D) Xolbeka

85. Arslonbobday yirik mutasavvuf olim qo'lida tarbiyalanib, keyinroq Buxoroga borib Yusuf Hamadoniydan ta'lim olgan adib kim edi?

- A) So'fi Olloyor B) Xo'janazar Huvaydo
- C) Boborahim MaShrab D) Ahmad Yassaviy

86. "Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qoladi" mazmunidagi satrlar kimning qaysi asarida keltirilgan?

- A) Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig'" asarida
- B) Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida

- C) Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasida
- D) Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiasida

87. Quyidagi qaysi ma'lumot Mahmud Koshg'ariy haqida?

- A) "Muhabbatnoma"ga javob-nazira tarzida asar yaratgan.
- B) O'z asarida turkiy so'zlarning ma'nosini arab tilida izohlab bergan.
- C) Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari tarjimasini boshlab qo'ygan.
- D) Misr amiri Batxasbekka bag'ishlab asar yozgan.

88. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari kimning topshirig'i asosida yozilgan?

- A) Misr amiri Batxasbekning
- B) Dod Sipohsolorbekning
- C) Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtadoning
- D) Nosiruddin To'qbo'g'aning (To'qbug'aning)

89. Qaysi asarda isrofgarchilik haqida mulohazalar yuritilib, "Isrof qilish saxiylik emas; oTinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas... Maqtanish uchun mol bermoq — o'zini ko'z-ko'z qilmoq va shunday qilib o'zini "saxiy" demoq" - behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas" mazmunidagi misralar o'rin olgan?

- A) "Nasihatlar" (Abay)
- B) "Mahbub ul-qulub" (Alisher Navoiy)
- C) "Alpomish" (xalq dostoni)
- D) "Qisasi Rabg'uziy" (Rabg'uziy)

90. Navoiy "Xamsa"sida mashaqqatli mehnatga bel bog'lab, elning ardoqli malikasi va uning jiyani orzusini ro'yobga chiqarish uchun uch yildan beri

sidqidildan mehnat qilayotgan odamlarni maqsadlariga yetishtirgan oshiqqa qarata kim: “Bu ishkim, biz demay bunyod etibsen, Bag‘oyat ko‘nglimizni shod etibsen”, — deya minnatdorchi bilan bildiradi?

A) Layli B) Shirin C) Dilorom D) Mehr

91. Quyidagilardan xamsanavislar haqida berilgan to‘g‘ri ma‘lumotlarni aniqlang.

1) "Xamsa" yozishni ozarbayjonlik ulug‘ shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan; 2) Dehlaviy yana 2 doston qo‘shib, o‘z "Xamsa" sini yetti dostonga yetkazadi; 3) Jomiy "Xamsa" sini "Panj ganj" deb atagan; 4) Xavoiv qisqa muddatda (1483-1485-yillarda) 51 ming misradan ortiq "Xamsa" sini yozib tugallagan.

A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

92. ... Ajam va Arabda hukm surayotgan shohning sovchilarini rad etadi. Undagi turkiy qavm ayollariga xos eng baland ina naviy fazilatlar kishini maftun etadi. Uning uchun martaba, boylik, hashamat kabi o‘tkinchi dunyo matohlarining hech qadri yo‘q. "Manga ne yor-u ne oshiq havasdur, Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur!" so‘zlari uning hayotdagi shiori edi.

Ushbu ma‘lumot Navoiy "Xamsa" sidagi qaysi doston qahramoni haqida?

A) "Sab'ayi sayyor" B) "Saddi Iskandariy"
C) "Hayrat nl-abror" D) "Farhod va Shirin"

93. Navoiy haqida berilgan to‘g‘ri ma‘lumotni aniqlang.

A) Buyuk shoirning eng so‘nggi asari "Nasoyim ul-muhabbat" deb nomlangan.

B) Alisher Navoiy ijodiy faoliyati davomida ikkita she‘riy devon tuzgan.

C) Alisher Navoiy 51 ming misradan ortiq "Xamsa" sini besh yil davomida yozib tugallagan.

D) Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad kabi ustozlarining xotirasiga bag‘ishlab esdaliklardan iborat nasriy asarlar yaratgan.

94. Qaysi javobda Mashrab hayoti va ijodiga tegishli ma‘lumot berilgan?

A) Siyosat va davlatga munosabat, hukmdor fazilatlar va burch-vazifalari borasidagi mulohazalar bayon etilgan "Qasidai nasihat" pandnomasi muallifidir.

B) "To‘y tavsifi", "Gap ta‘rifida", "Aza tavsiti" kabi etnografik xarakterga ega asarlar muallifidir.

C) Haq yo‘liga boshloveli tariqat. rahnamosi sanalgan Mullo Bozor Oxunddan ta‘lim olgan.

D) Miroblik ishlari bilan safarda yurganda tasodifan oyog‘i qattiq shikastlanadi va to‘shakka bog‘lanib qoladi.

95. Ijodkorning afsus-nadomat to‘la she‘rlari bilan bir qatorda "Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbat". "Sendek menga bir yori vafodor topilmas" kabi hayotsevarlik g‘oyalari, hayotga qaynoq mehr jo‘shqin ifoda etilgan g‘azallari ham bor.

Ushbu ma‘lumot qaysi ijodkor haqida?

A) Zahiriddin Muhammad Bobur B) Muqimiy
C) Alisher Navoiy D) Mashrab

96. ... ijodiy merosida to‘rtta ilmiy asar bo‘lib, ularning uchtasi etnografik xarakterga ega, to‘rtinchisi esa aruz ilmiga doir "Ilmi ash‘orning qoidai avzoni" nomli adabiyot ixlosmandlari uchun qo‘llanma sifatida tuzilgan asardir. Ushbu ma‘lumot qaysi ijodkor haqida?

A) Boborahim Mashrab
B) Muhammad Rizo Ogahiy
C) Zahiriddin Muhammad Bobur
D) Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat

97. Shoirning Istambulda yozgan "Sabog‘a xitob" she‘rida Vatanni qo‘msash, do‘stlar sog‘inchi maktub shaklida ifoda etiladi.

Ushbu ma‘lumot qaysi ijodkor haqida?

A) Zahiriddin Muhammad Bobur
B) Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat
C) Muhammad Rizo Ogahiy
D) Boborahim Mashrab

98. Bo‘lajak shoir bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob" ni o‘qib tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, sal o‘tib, Navoiy mutolaasiga tutinadi. Ushbu ma‘lumot qaysi shoir haqida?

A) Muqimiy B) Komil Xorazmiy C) Ogahiy
D) Furqat

99. Shoir ijodida tabiat tasviriga bag‘ishlangan bir qator g‘azallar bor. Suvni "obi hayvon" — tiriklik suviga o‘xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Shoir tog‘lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go‘zalga o‘xshatadi: "Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon. Qildi sahrog‘a tarovat o‘zgacha paydo bahor". Ushbu parchada qaysi shoir lirikasi haqida fikr yuritilgan?

A) Furqat B) Muqimiy C) Zavqiy D) Ogahiy

100. Qaysi asarda insoniy qiyofani vo qotib, hayvonsifat kimsaga aylangan yovuz xonning aynan hayvon saqlanadigan joyda qo‘lga olinishi tasvirlanadi?

A) "Oygu bilan Baxtiyor" B) "Kuntug‘mish"
C) "Rustamxon" D) "Ravshan"

101. Quyidagi qaysi she‘rda yigitlar millat dardiga najot sifatida tilga olingan?

A) "Yong‘in" (Cho‘lpon) B) "O‘gut" (Fitrat)
C) "Vijdon erki" (Cho‘lpon) D) "Mirrix yulduziga"

(Fitrat)

102. Shuhratparastlikka intilib ibodatxonani yoqib yuborgan xudbin Gerostratning qilmishi kimning she'rida tilga olingan?

- A) Usmon Nosir ("Nil va Rim")
- B) Cho'lpon ("Xazon")
- C) Fitrat ("Mirrix yulduziga")
- D) G'afur G'ulom ("Vaqt")

103. Mirtemir ijodiga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Gogolning "Tergovchi", I. Frankoning "Feruza", L. Andreevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi" asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan.
- B) "Sharq shaxmati", "Fors shoiri Umar Xayyom" singari ilmiy asarlari mavjud.
- C) "Tobutdan tovush", "Ayajonlarim" komediyalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.
- D) "Manas" qirg'iz xalq eposi, "Qirq qiz" qoraqalpoq xalq dostonini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

104. "Chor hukumati ma'murlari "to'rt chaqaga arzimagan bu qurboni zamonni" yangi fath etilgan "Vahshiy" xalq orasidan yetishgan ziyrak, yetuk, toj-u taxtga sadoqatli siyosat arbobi sifatida ko'rsatmoq istaydilar..."

Ushbu parcha qaysi adabiy qahramon haqida?

- A) Akbarali ("Kecha v'a kunduz")
- B) Hakimboyvachcha ("Qutlug' qon")
- C) Abulfayzxon ("Fitrat")
- D) Olimxon ("Dahshat")

105. Said Ahmad qalamiga mansub asarlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) "Nur borki, soya bor", "Qoplori"
- B) "Qorako'z majnun", "Sobiq"
- C) "Jimjitlik", "Jar yoqasidagi chaqmoq"
- D) "Oltin vodiya shabadalar", "Ufq"

106. Yordamga muhtoj odamning yoniga bir zumlik qo'rquv tufayli bormagan, mo'rt barg kabi hayot sinovlariga bardosh berolmagan qahramon nomi keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Akbarali ("Chinor")
- B) Bo'rixon ("Qorako'z majnun")
- C) Nizomjon ("Ufq")
- D) Salimboyvachcha ("Qutlug' qon")

107. Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlangan, ammo yakka-yu yagona o'g'lining qo'rqqoqlik qilib urushdan qochganini bilgach, mukofotni olishdan voz kechgan obraz qaysi asarda keltirilgan?

- A) "Ufq" (Said Ahmad)
- B) "Qiyomat qarz" (O'lmas Umarbekov)
- C) "Dunyoning ishlari" (O'tkir Hoshimov)

D) "Chinor" (Asqad Muxtor)

108. "Taskin berib onam yig'laydir, Qolganlari yolg'on yigdaydir", "Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon". "Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho" kabi takrorlanmas misralar muallifini aniqlang.

- A) Tota Sulaymon B) Erkin Vohidov
- C) Muhammad Yusuf D) Abdulla Oripov

109. "U bir necha yil Qirollikning sobiq ministri Vilyam Tempri saroyida kotib bo'lib ishlaydi. Templning boy kutubxonasidan foydalanib dunyoqarashini kengaytiradi".

Ushbu ma'lumot qaysi chet el adibi haqida berilgan?

- A) Hans Kristian Andersen
- B) Ernest Seton-Tompson
- C) Jonatan Svift
- D) Antuan de Sent-Ekzyuperi

110. "Janub chopari", "Tungi parvoz", "Erkaklar zamini" romanlari muallifini aniqlang.

- A) Antuan de Sent-Ekzyuperi
- B) Jonatan Svift
- C) Hans Kristian Andersen
- D) Ernest Seton-Tompson

111. Quyida berilgan kitoblardan qaysi biri Jonatan Svift qalamiga mansub emas?

- A) "Movutfurush xatlari" B) "Kitoblar jarigi"
- C) "Quvnoq slie'rlar kitobi" D) "Bochka cho'pchagi"

112. Qaysi ijodkorning otasi novvoy bodgani uchun uning bolaligi, o'zi ta'kidlaganidek, "olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko'mir solingan qoplar orasida" kechgan?

- A) Antuan de Sent-Ekzyuperi
- B) Janni Rodari
- C) Hans Kristian Andersen
- D) Jonatan Svift

113. Quyidagi qaysi asarni jafokash hind xalqini qullikda ushlab turishga intilgan ajnabiy mustamlakachilar va ularga zulm pichog'ini qayrab bergan mahalliy amaldorlar haqida bitilgan aybnoma sifatida o'qish mumkin?

- A) "Hellados" B) "Nur va soyalar"
- C) "Hayotga muhabbat" D) "Yovvoyi yo'rg'a"

114. O'smirlikdagi pokiza tuyg'ularini ilk bora she'rga solishdek baxt ato etgan kunlarni, qalbiga birinchi muhabbat hissini hadya etgan qo'shni qizni xotirlagan, baxtli damlarni boshdan kechirgan dilga yaqin joylarni "Bizning joylar o'rni hozir paxtazor" deb yozgan shoir va uning she'ri qaysi javobda berilgan?

- A) Mirtemir, "Qishlog'im"
- B) Ibroyim Yusupov, "Qadrdon so'qmoqlar"
- C) Abdulla Oripov, "Sarob"

D) G'afur G'ulom, "Sog'inish"

115. "Kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o'zida kuch topa oladigan chin inson", deya sifatlangan, odimidan so'ng farzandidan qadr topmagan do'stining dafn etilishiga insoniy burch sifatida qaragan adabiy qahramon nomi berilgan javobni aniqlang.

- A) Mo'min chol ("Oq kema")
- B) Edigey ("Asrga tatigulik kun")
- C) Ikromjon ("Ufq")
- D) Bektemir ("Chinor")

116. Ochibon yuz gulni, xurram aylabon ming sarvni,

Bulbul-u qumrini qildi vola-yu shaydo bahor. Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A) takrir B) tarse' C) tanosub D) talmeh

117. Qaysi javobda roman-dilogiya nomi keltirilgan?

- A) "Oltin zanglamas" (Shuhrat)
- B) "Shaytanat" (Tohir Malik)
- C) "Mash'al" (H.G'ulom)
- D) "Olmos kamar" (P.Qodirov)

118. Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin aylansun,

Yangi oy yuz tavozu' ko'rguzub, qoshingdin aylansun.

Ushbu baytda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?

- A) tanosub, tashxis B) tarse, irsoli masal
- C) tajnis, talmeh D) tanosub, ishtiyoq

119. Tuttum o'lmakdin tirilmak hajrida tengdur manga,

Emdi gar bergil ziloli Xizr agar jallod bo'l. Baytda ishlatilgan badiiy san'atlarni aniqlang.

- A) tajnis, tazod B) talmeh, tarse'
- C) tazod, talmeh D) mubolag'a, tardi aks

120. Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il. Ushbu baytda qodlangan she'riy san'atlarni aniqlang.

- 1) tajnis; 2) tarse'; 3) tardi aks; 4) talmeh; 5) tashbeh
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 5 D) 2, 4

